



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



VOL. 1, ISSUE 1  
The Journal of Academic  
Research and Trends in  
Educational Sciences

ISSN 2181-2675 [www.ijournal.uz](http://www.ijournal.uz)

## CREATING A COMPETITIVE ENVIRONMENT

Tuychieva Nodira<sup>1</sup>

Soriyev Siroj<sup>2</sup>

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

---

### KEYWORDS

competition, competitive, monopoly, realization, innovative, cross-border

---

---

### ABSTRACT

Competition consists of a conflict of economic interests of market entities, which means a struggle between them for higher profits and more productivity. The introduction of new technology, the rapid adoption of on-demand product types, the availability of skilled labor and the use of modern marketing services become a prerequisite for winning the competition.

Another condition for the existence of competition is the presence of commodity money relations, a market system that is developed to a certain extent. Therefore, the main field of competition is the market.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7406561

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

<sup>2</sup> Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan ([sirojsoriyev21@gmail.com](mailto:sirojsoriyev21@gmail.com))

## IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIK MUHITINI YARATISH

### KALIT SO'ZLAR:

raqobat, raqobatbardosh, monopoliya, realizatsiya, innovatsion, transchegaraviy

### ANNOTATSIYA

Raqobat -bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naflilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Yangi texnologiya joriy qilish, talabga javoban tovar turlarini tez o'zlashtirish, malakali ishchi kuchiga ega bo'lish va zamonaviy marketing xizmatidan foydalanish kabilalar raqobat kurashidan g'olib chiqish shartiga aylanadi.

Raqobat mavjud bo'lishining yana bir sharti - bu tovar pul munosabatlaringin, ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimining bo'lishidir. Shu sababli raqobatning asosiy sohasi bozor hisoblanadi.

Raqobat muhiti deb bozor munosabatlari ishtirokchilarining xo'jalik yuritishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan iqtisodiy, qonuniy, tshkiliy va siyosiy sharoitlar majmuasiga aytildi.

Hozirgi sharoitda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash, fuqarolarning turmush farovonligini yaxshilash, jahonda o'zaro foydali hamkorlikni kengaytirish uchun jahon iqtisodiyotida munosib o'rinni egallash zarur va buning uchun albatta iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Demak, raqobatbardoshlik muhitini himoyalash bu mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni himoyalashning eng ahamiyatli elementlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, raqobatbardoshlikni qo'llab-quvvatlash yoki uning cheklanishi bilan kurashish, o'z navbatida monopoliyaga qarshi murosasiz kurashishni aks ettiradi.

Raqobat asosiy iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, moddiy ne'matlarni taqsimlash, iste'molchilarning manfaatlarini qanoatlantirishning oqilona vositasidir. Raqobat zarur darajada o'zini-o'zi tartibga solishga qodir emas. Shu sababli bozor oqilona faoliyat ko'rsatishi uchun raqobat sharoitlarida mavjud munosabatlarni maxsus qonun bilan tartibga solishni taqozo etadi. Raqobat hamma uchun, hamma joyda kerakdir.

Bizga ma'lumki, raqobat bo'lmasa, intilish, rivojlanish bo'lmaydi. Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z manfaatlarini to'laroq yuzaga chiqarish, ya'ni yaxshi daromad topish, o'z mavqeini mustahkamlash, o'z qobiliyatini namoyon etish uchun boshqalar bilan kurashishdir.

Odatda rivojlangan davlatlarda tovarlarni muayyan tartibda va shaklda realizatsiya qilishning hech qanday talabi mavjud emas. Nimani, qayerda, kimdan va qanday bahoda sotib olishni faqat iste'molchi o'zining xohishi va to'lovga qobiliyatliligiga qarab o'zi belgilaydi. Raqobat rivojlangan sari odamlarning turmush darjasini yaxshilanib boradi, raqobatning yo'q qilinishi esa iqtisodiyotni inqirozga hamda odamlarning turmush

darajasining tushib ketishiga olib keladi. Faqatgina raqobat vositasida narxi arzon va sifati yuqori bo'lgan tovarlar ishlab chiqiladi hamda realizatsiya qilinadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risidagi qonon bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e'tiborga olgan xolda "Raqobat to'g'risidagi" yangi qonunni ishlab chiqarishimiz va qabul qilishimiz zarur." - deb ta'kidlagan edilar.

Shulardan kelib chiqqan xolda, raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Zero, raqobat tashqi kuch sifatida maydonga chiqib, korxonalarda mehnat unumdarligini oshirish, harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni oqilona tashkil etishga, binobarin ishlab chiqarishni kengaytirish va samaradorligini oshirishga doimo undab turadi.

Raqobat nima ishlab chiqarish kerak? degan savolga aniq javob beradi. Chunki xaridorning tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflash uchun mo'ljallangan mablag'lari doimo cheklangan bo'ladi. O'z navbatida tovar ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini sotish orqali ushbu mablag'larga ega bo'lish maqsadida kurashadilar.

Bugungi kunga kelib raqobat muhitini yanada keng roq yaratish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bu borada yurtimizda raqobatni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish ko'zlanmoqda:

- raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish hamda monopoliyaga qarshi tartibga solishning milliy iqtisodiyotda va jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar va jarayonlarning yuksak talablariga javob beradigan mutlaqo yangi ilg'or modelini yaratish;
- tovar va moliya bozorlarini tahlil qilishning moslashuvchan, shu jumladan, xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan vositalari va usullarini joriy etish;
- raqobatni himoya qilish bo'yicha oldini oluvchi vositalarni, shu jumladan, monopoliyaga qarshi komplayens mexanizmi – birinchi navbatda tovar va moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlar ichida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlash tizimini joriy etish;
- rag'batlantiruvchi tariflar shakllantirishning raqobatni kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatadigan yangi yuqori samarali usullari va ularni qo'llashni nazorat qilish

mexanizmlarini joriy etish hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari (tariflari)ni davlat tomonidan tartibga solish tizimini tubdan takomillashtirish;

- raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solishning samarali vositalarini, shu jumladan, raqobat to'g'risidagi qonunchilik buzilishlari transchegaraviy shakllarining oldini olish maqsadida yaratish;

- raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun huquqiy ta'sir ko'rsatish choralarini kuchaytirish va bir vaqtning o'zida huquqni qo'llashda keng ixtiyor beradigan vakolatlarni bekor qilish;

- munosib moddiy ta'minot va ijtimoiy sharoitlar borasida ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutgan holda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi faoliyati samaradorligini oshirish hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi turli omillarning oldini olish va hakozo.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hukumat tomonidan iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish masalasiga alohida e'tibor berildi. Jahondagi barcha rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqobat bo'yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish borasida mutlaqo yangi tizim yaratish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lif tizimida raqobatni rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha alohida fakultet, kunduzgi va sirtqi o'qish shaklini ochish, yangi fan joriy qilish va ushbu maqsadlar uchun akademik soatlar ajratish bo'yicha ko'rsatmalar berilib kelinmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Itbach, F. (2008) The complex roles of universities in the period of globalization. Higher Education in the World 3,pp. 5–14. URL: [https://www.researchgate.net/publication/277128834\\_The\\_complex\\_roles\\_of\\_universities\\_in\\_the\\_period\\_of\\_globalization/stat](https://www.researchgate.net/publication/277128834_The_complex_roles_of_universities_in_the_period_of_globalization/stat)
2. Baregheh, A., Rowley, J., & Sambrook, S. (2009) "Towards a multidisciplinary definition of innovation". Management Decision. 47(8): 1323–1339. URL: [https://www.researchgate.net/publication/41104662\\_Towards\\_a\\_Multidisciplinary\\_Definition\\_of\\_Inno](https://www.researchgate.net/publication/41104662_Towards_a_Multidisciplinary_Definition_of_Inno)
3. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lif metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
5. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.
6. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

7. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF "MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.
8. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
9. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.
10. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.
11. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.
12. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.
13. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 192-199.
14. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.
15. To'ychiyeva, N. (2022). AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 53-56. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/625>
16. To'ychiyeva , N. (2022). AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIQ-IQTISODIY ASOSLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 3-6. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/624>
17. To'ychiyeva N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 103-105.
18. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – С. 1133.
19. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'YIY INTELEKTNI KADRALAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251-253. Retrieved from <http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171>

20. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

21. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.